

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.03

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**NOBYuDJET FONDLAR
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X. N.,
k.o'q. Nurmammedova
B.

Taqrizchilar: dots. Maxamatxonova Z.,
dots. Haydarov N.

Dastur iqtisodiy oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Yangi ish o'rinlarini yaratish, pensiya ta'minoti va boshqa ijtimoiy extiejlarni moliyalashtirishda nobyudjet fondlardan foydalaniladi. Yangi iqtisodiy munosabatlar ushbu fondlarni samarali boshqara oladigan mutaxassislarni talab etmoqda. Ushbu fanda nobyudjet fondlar taraqqiyoti muammolariga oid masalalar nazariy, ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mazkur dastur asosida taqdim etilgan ma'ruzalar talabalarga nobyudjet fondlar bilan bog'liq muammolarni echish uchun zaruriy ko'nikmalar berishning nazariy yo'nalishlarini yoritadi.

Данная программа включает в себя изучение сущности, функций и основных форм внебюджетных фондов и предназначена для студентов направления бакалавриата "Финансы" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены организационно-правовые и финансовые аспекты функционирования внебюджетных фондов в Республике Узбекистан. В программе приведен список литературы для изучения предмета на узбекском, русском и английском языках. К списку приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

The given manual is intended for the students of economic high schools.

The specialists working on Finance system well be guided in questions of the subject Extra Budget Funds.

Such questions like creating new working places, providing pension and so on financed by extra Budget Funds. New economic conditions require high qualified specialists who can to manage these Funds. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning extra Budget Funds.

The rate of given lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with extra Budget Funds.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2002 yil 9-son majlis bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Nobyudjet fondlar" fanini o'qitishning maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi nobyudjet fondlari faoliyati xususiyatlari haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrda iqtisodiy taxlil, boshqarish va nazorat jarayonlarning muhim yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilaydi:

- nobyudjet fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xo'jalik faoliyatini moliyaviy hisobotlarida aktiv shakllar yordamida qonunchilik va normativ hujjatlarda belgilangan ko'rsatgichlardan foydalanish;
- moliyaviy organlarda iqtisodiy va nazorat ishlarni baholash, imkoniyatlarini yoritish;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning moliyaviy va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish va h.k.

"Nobyudjet fondlar" fani "Moliya", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Iqtisodiy nazariya", "Davlat moliyasi", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga "Nobyudjet fondlar" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Korxonalar moliyasi", "Soliq nazariyasi", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda xalqaro moliyaviy qonunchilik sohasidagi yangiliklardan, xalqaro

miqyosdagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar xalqaro moliya amaliyotida mavjud bo'lgan iqtisodiy tahlil, moliyaviy rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Nobyudjet fondlar" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng xalqaro moliya amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda xalqaro moliya munosabatlariga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollarni talabalar to'liq mustaqil ravishda o'zlashtirishlari shart.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 81, shu jumladan 36 - ma'ruza, 18 - amaliy mashg'ulotlar va 27 soati mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VII o'quv semestriga mo'ljallangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini baholash reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda yig'ilgan ballar asosida oshiriladi.

Fan o'qitiladigan bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin. Oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quydagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasining ko'zda tutilishi;

- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilganligi;
- Muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirishdan foydalanganligi;
- Tayanch savollarga asoslangan yozma ish orqali oraliq baholash o'tkazish tizimidan foydalanilganligi.

Bu fanni o'qitishda moliyaga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projest expert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalaridan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlariga tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur.
2. Har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar xamda tegishli moliyaviy konunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etadigan tarzda berilishi kerak.
3. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi zarur.
4. Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi maqsadga muvofiq.

2. FAN DASTURI

"Nobyudjet fondlar" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruza mavzulari

Kursning predmeti va mazmuni

Nobyudjet fondlar fanining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Fan oldidagi vazifalar. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi bosqichida fanni rivojlantirishning

o'ziga xos xususiyatlari. "Nobyudjet fondlar" fani "Moliya" fanining tarkibiy qismi sifatida. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Nobyudjet fondlarning mohiyati, mazmuni va turlari

Nobyudjet fondlarning mohiyati va jamiyat rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida nobyudjet fondlarni tashkil etishning shart-sharoitlari va xususiyatlari. Nobyudjet fondlarning davlat jamlanma byudjetidagi o'rni.

Nobyudjet fondlarning funktsiyalari. Ijtimoiy himoya funktsiyasi, uning asosiy maqsadi va davlatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni. Hozirgi bosqichda nobyudjet fondlar bo'yicha olib borilayotgan moliyaviy siyosat strategiyasi va taktikasi. Nobyudjet fondlarni umumiy boshqaruv organlari. *Nobyudjet fondlarni operativ boshqaruv organlari.* Pensiya fondi va uning quyi bo'g'inlari. Bandlik fondi va uning joylardagi bo'limlari. Respublika yo'l fondi va uning quyi bo'g'inlari. Davlat Mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami. *Nobyudjet fondlarning yuridik shaxslar bilan moliyaviy munosabatlari. Nobyudjet fondlarning jismoniy shaxslar bilan iqtisodiy munosabatlari.*

Pensiya fondining shakllanishi va foydalanilishi

Pensiya fondining mohiyati va mazmuni. 1991 yilga qadar mazkur fondning shakllanish manbalari va foydalanish yo'llari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiya fondining asosiy vazifalari. *O'zbekiston Respublikasida "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va hayotga tatbiq etilishining ahamiyati. Hozirgi sharoitda pensiya fondining daromadlari va ularning tarkibi.* Mulk shaklidan qat'iy nazar tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar xarajatidan pensiya fondiga ajratmalar. Moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi va tijorat xizmati ko'rsatuvchi muassasalar ajratmalarining o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy shaxslarning ish haqidan yakka tartibdagi ajratmalari, stavkasi va olinish mexanizmi.

Pensiya fondi xarajatlari va uning tarkibi. "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun mehnat faoliyatini tugatgan erkak va ayollarning yoshlari haqida. Og'ir ekologik sharoitda pensiyaga chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. Mudofaa tizimida xizmat qilgan fuqorolarning pensiyaga chiqish xususiyatlari. Ko'p bolali onalarning pensiyaga chiqish yoshlari. Ijtimoiy pensiya va uning o'ziga xos xususiyatlari. I - II guruh nogironlariga pensiya berish mexanizmi. Pensiya yoshiga etmasdan bir yillik pensiyaga chiqish mexanizmi. Pensiya fondining qo'shimcha daromad manbalari. Tijorat korxonalaridan hayrixohlik mablag'lari, ortiqcha mablag'lardan investitsiya jarayonida foydalanib, iqtisodiy samara olish yo'llari: qisqa muddatli davlat obligatsiyalari, maqsadli lotereyalarni muomalaga chiqarish va boshqalar. Hozirgi sharoitda mazkur fondni shakllantirish va foydalanish muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari.

Ijtimoiy sug'urta fondi

Ijtimoiy sug'urta fondining mohiyati, mazmuni va maqsadi. Ijtimoiy sug'urta fondining shakllanish manbalari. Hozirgi sharoitda ijtimoiy sug'urta fondining daromadlari va ularning tarkibi. *Tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ish haqi fondiga nisbatan ajratmalari, ularni hisoblab chiqish mexanizmi.* Ushbu ajratmalarning korxonalar mahsuloti, xizmati va ishning tannarxida tutgan o'rni. Jismoniy shaxslarning ish haqi fondidan ajratmalar. Yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik, hayrixohlik mablag'lari. Pansionat va dam olish uylari uchun yo'llanma baholari. *Ijtimoiy sug'urta fondidan foydalanish yo'llari.* Mazkur fondan foydalanuvchi shaxslar kasallik varaqalariga to'lash, dam olish joylariga berilgan yo'llanmaning ma'lum qismini qoplash, korxonalar umumiy ovqatlanish xarajatlarini qoplash. Hozirgi sharoitda mazkur fondagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Mazkur fondga qo'shimcha mablag'larni jalb etish yo'llarini qidirib topish. Bugungi kunda fondning davlat konsolidatsiya byudjetidagi salmog'i.

Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondi

Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondining mazmuni va ahamiyati. Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondini tashkil etilishiga ta'sir etgan ob'ektiv omillar, uni tashkil etishning asosiy maqsadi, ijtimoiy rivojlanishda uning tutgan o'rni. Mazkur fondning boshqa turdagi fondlarga nisbatan ijtimoiy xususiyati. Respublikada ishsizlikning oldini olish va uning salmog'ini kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan moliyaviy siyosat strategiyasi va taktikasi. *Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondi moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari.* Mulk shaklidan qat'iy nazar xo'jalik sub'ektlarning ish haqi fondiga nisbatan maxsus ajratmalari. Yuridik shaxslar va tadbirkorlarning mazkur fondga xomiylik mablag'lari. *Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondidan foydalanish yo'llari.* Ushbu fondan foydalanish maqomini olgan fuqorolar. Mehnat layoqatiga ega bo'lib, rasmiy ro'yxatdan o'tgan fuqorolar. *Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondidan nafaqa olish summasi va to'lanish muddatlari.* Yangi ish joylari bo'yicha ma'lumot yig'ish. Fuqorolarning qayta malakasini oshirish. Bandlik fondini tashkil etuvchi va mablag'larni maqsadli yo'naltiruvchi xizmatchilarga ish haqi va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish. *Bandlik fondini tashkil etish va ulardan foydalanish borasidagi moliyaviy muammolar.*

Respublika yo'l fondi

Respublika yo'l fondining mazmuni, ahamiyati va tashkil etish maqsadi. Umumjamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlarni amalga oshirishda mazkur fondning shakllanish manbalari. Tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining

ajratmalari moddiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan va tijoriy xizmat ko'rsatayotgan muassasalar ajratmalari. Engil avtomobillarni xarid qilishdagi ajratmalar. Yuk avtomobillarini xarid qilishdagi ajratmalar. *Respublika yo'l fondidan foydalanish yo'llari*. Yirik magistrallar, er osti yo'llari qurish, ko'priklar, mavjud yo'llarni ta'mirlash va boshqalar. Respublika yo'l fondini shakllantirish va foydalanishda xizmat ko'rsatayotgan xodimlarga ish haqi berish va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish. Hozirgi sharoitda yo'l fondiga ajratmalar fondini kamaytirish yo'llari. Mazkur ajratma yukini oshishiga ta'sir etayotgan ayrim ob'ektiv sabablar.

"Umid", "Ustoz" va boshqa jamoa fondlari

"Umid" fondini tashkil etishga ta'sir etgan omillar. Mazkur fondning maqsadi va moliyaviy mablag'larining shakllanish manbalari. Respublika miqyosidagi maxsus ajratmalar. Tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ajratmalari. Ushbu fondan foydalanish yo'llari. Yo'l xarajatlari, o'qish uchun xarajatlar, tarqatma materiallar va idora tovarlari uchun xarajatlar. *"Ustoz" fondini tashkil etishga ta'sir etgan omillar. Mazkur fondning maqsadi va moliyaviy mablag'larining shakllanish manbalari.* Respublika miqyosidagi maxsus ajratmalar. Oliy o'quv yurtlarining kontrakt jamg'armasidan ajratmalari. Tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining xomiylik mablag'lari. *"Ustoz" fondidagi moliyaviy resurslardan foydalanish yo'llari.* Professor-o'qituvchilarning rivojlangan mamlakatlarda malakasini oshirishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash. *"Sog'lom avlod uchun", "Navro'z", "Amir Temur", "Ulug'bek", "Orol" va shularga tenglashtirilgan jamoa fondlari.* Ularning moliyaviy mablag'larining shakllanish manbalari. Ulardan foydalanish yo'llari. Bugungi sharoitda ushbu fondlarga moliyaviy mablag'larni ko'paytirish yo'llarini qidirib topish masalalari.

Xorijiy mamlakatlarda nobyudjet fondlarning shakllanishi va ulardan foydalanish yo'llari

Hamdo'stlik mamlakatlarida nobyudjet fondlar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Nobyudjet fondlarning turlari. Mulk shaklidan qat'iy nazar nobyudjet fondlarga ajratmalar, ularning miqdori va olinish ob'ektlari. Nobyudjet fondlardan foydalanish qoidalari. *Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda nobyudjet fondlarning byudjet bilan aloqalari.* Xorijiy mamlakatlarda mazkur fondlar yuzasidan tajriba sifatida foydalanish.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Kursning predmeti va mazmuni

Nobyudjet fondlar fanining jamiyatni rivojlantirishdagi roli*. Nobyudjet fondlarning vujudga kelish tarixi*. Hozirgi bosqichda fanni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Nobyudjet fondlarning mohiyati, mazmuni va turlari

Nobyudjet fondlarning rejali iqtisodda tutgan o'rni. Nobyudjet fondlarning funktsiyalari*. Hozirgi bosqichda nobyudjet fondlar bo'yicha olib borilayotgan moliyaviy siyosat. Nobyudjet fondlarning umumiy boshqaruv organlari*.

Pensiya fondining shakllanishi va ulardan foydalanish

Pensiya fondining mohiyati va mazmuni*. Hozirgi sharoitda pensiya fondining shakllanish manbalari*. Pensiya fondidan foydalanuvchi sub'ektlar. Pensiya fondining qo'shimcha daromad manbalari.

Ijtimoiy sug'urta fondi

Ijtimoiy sug'urta fondining mohiyati, mazmuni. Ijtimoiy sug'urta fondidan foydalanish yo'llari*. Hozirgi sharoitda mazkur fondagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Nobyudjet fondlarning umumiy boshqaruv organlari*.

Respublika bandlikka ko'maklashuv Davlat fondi

Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondining mazmuni va ahamiyati*. Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondining moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari*. Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondidan foydalanish yo'llari. Bandlikka ko'maklashuv Davlat fondini tashkil etish va ulardan foydalanish borasidagi moliyaviy muammolar.

Ruspublika yo'l fondi

Respublika yo'l fondining mazmuni, ahamiyati va tashkil etilish maqsadi*. Respublika yo'l fondidan foydalanish yo'llari*.

"Umid", "Ustoz" va boshqa fondlar

"Umid" fondini tashkil etilishiga ta'sir etgan omillar*. "Ustoz" fondini tashkil etilishiga ta'sir etgan omillar*. O'zbekiston Respublikada faoliyat ko'rsatuvchi boshqa jamoa fondlari.

Xorijiy mamlakatlarda nobyudjet fondlarning shakllanishi va ulardan foydalanish yo'llari

Hamdo'stlik mamlakatlarida nobyudjet fondlar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari*. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda nobyudjet fondlarning byudjet bilan aloqalari*.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'ragazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlillar, prognozli ko'rsatgichlarni hisoblash, diagrammalarni personal kompyuterda elektron tablitsalarda Excel 7,0 paketi bilan ishlash asosida o'rganish ko'zda tutilgan.

Personal kompyuterda "Pravo" sistemasi bilan ishlashni o'rganish va o'qish jarayonida nobyudjet fondlar faoliyatiga oid moliyaviy qonunchilik asoslari hamda huquqiy-me'yoriy xujjatlar bilan tanishishda undan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga internetning quyidagi saytlaridan foydalanish mumkin:

Case Studies: O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi taxliligiga doir o'quv misollari (rus tilida). Moliya Vazirligi xomiyligida "Byudjet-soliq siyosati" Markazi tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: WWW.google.ru (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondining davlat moliyasi va uning bo'g'inlariga oid dasturlari); WWW.Yandex.ru; WWW.rambler.ru; WWW.worldbank.org.ru; WWW.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. Gosudarstvennie finansi Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.
2. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.
3. Vnebyudjetnie fondi v Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi: joriy, oraliq va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislar tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYO'T

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining parametrlari to'g'risi"dagi 455-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2002.
8. "O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi". O'zbekiston Respublikasining № 396-1, 24.04.1997 y. Qonuni bilan tasdiqlangan.
9. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Pod redaktsiey prof. M. V. Romanovskogo i prof. O. V. Vrublevskoy. -M.: Yurayt, 2000.

10. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uch. pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy – 2-izd. -M.: Yurayt, 2000.
11. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik pod red. G.B. Polyaka – 2-izd. -M.: YuNITI, 2001.
12. Byudjetniy federalizm i mejbyudjetnie otnosheniya: problemi i perspektivi razvitiya. 2-izd. –S-Pb.: Kodeks INFO, 2001.
13. Verxolaz M.A. Vliyanie stepeni ispolzovaniya ekonomicheskogo potentsiala na sostoyanie mestnix byudjetov. – 2-izd. –Belgrad: Iskra, 2000.
14. Gizatullin X.N., Zaripova I.R. Formirovanie i problemi rasshireniya samostoyatelnosti mestnix byudjetov v usloviyax rinochnix otnosheniy. – 2-izd. –Ufa: Institut ekonomiki UrO RAN, 2001.
15. Dmitriev M. Byudjetnaya politika v sovremennoy Rossii. – 2-izd. -M.: Moskovskiy Tsentr Karnegi, 2001.
16. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya. – 2-izd. -M.: Delo LTD, 2001.
17. Zaripova I.R., Xafizova V.R. Istoriya razvitiya i sovremennoe sostoyanie mejbyudjetnix otnosheniy v Rossii. – 2-izd. –Ufa: GP Print, 2001.
18. Drobozina L.A. Finansi. Uch. dlya VUZov, -M.: Banki i birji, 2000.
19. Dj K Van Xorn. Osnovi upravleniya finansami. Pod red. Prof. Sokolova Ya.V. -M.: Finansi i statistika, 1996.
20. Letkeman I. Sovershenstvovanie mexanizma gosudarstvennogo regulirovaniya byudjetnoy sistemi // Rinok, dengi i kredit, 2001, ¹ 7.
21. Nagovitsin A.G. Byudjetnaya politika. –M.: Ekzamen, 2000.
22. Tkachuk M. I. Gosudarstvenniy byudjet. Uch. pos. 3-izd. –Minsk: Visshaya shkola, 2000.
23. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy, B.M. Sabanti. -M.: Yurayt, 2000.
24. Ernst Djons. Delovie finansi. -M.: Dialog, 1998.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Belyaev Yu. A., Rol finansov v stabilizatsii Rossiyskoy ekonomiki // "Finansi", 1997. № 1.
2. Vajneyshie zadachi organov finansovoy sistemi - finansi pri perexode k rinku // "Finansi", 1997. № 6.
3. Gerasimenko G.P., Markaryan E.A. Finansoviy analiz. Ucheb. pos. 2-izd., -M.: PRIOR, 2001.

4. Larionov I. K. O nekotorykh voprosakh sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki. // "Finansi", 1997. № 6.
5. Lyovin A.P. Nalogovo-byudjetniy potentsial regionov Rossii. Problemi i mneniya. // "Nalogoviy vestnik", GNS RF, aprel, 1997.
6. Petrov Yu. Ozdorovlenie finansovoy sistemi i normativnie metodi gosudarstvennogo regulirovaniya ekonomiki. // "Rossiyskiy ekonomicheskii jurnal", Izd. "Finansi i statistika" 1997. № 3.
7. Purtov V. A. Byudjet i nalogovaya sluzhba. // "Finansi", 1997. № 1.
8. Sunik B. V. Sfera kulturi: mestnie byudjeti i finansirovanie. // "Finansi", 1997., № 8.
9. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya. 2-izd., -M.: Finansi i statistika, 2001.
10. Boyd J. Inflation. "Growth and Control Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research Working Paper 1575. The World Bank. Washington. D. C.
11. EBKD transition Ronont 998. Financial sector in transition. European Bank for Reconstruction and Development. London 1998.
12. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.
13. Moyer C. Financial System. Corporate Finance and Economic Development, in RA Hubbart (ed) Asymmetric information. Corporate Finance and investment. A Notional Bureau of Economic 1990 Research Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.
14. Steinherr A. An innovator Package for Financial Sector Reforms in Eastern European Countries. Journal of Banking and Finance 17 PP. 1033-1057.
15. Mingaleva Zh About the experience of enterprise's strategies in crises situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, trends of development: S-Petersburg 1998.
16. Tkacheva S Innovation Activities Infrastructure as Multi Agent System The 11th Annual Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000. 136-141.